



“XO‘JA” INDIKATORLI NEKROTOPONIMLAR

Yusupov San‘at Shuxratovich

Nukus davlat pedagogika instituti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasida o‘qituvchisi.

E-mail: sanatyusupov999@gmail.com

ORCID ID: <https://orcid.org/0009-0008-2428-485X>

Annotatsiya. Maqolada Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi “Xo‘ja” indikatorli nekrotoponimlarning ba‘zi semantik xususiyatlari o‘rganilgan

Kalit so‘zlar: toponim, nekrotoponim, nekronim, indikator, onomastik konversiya, grammatik tarkib, etimologiya, semantik tarkib.

Ma‘lumki, har qanday toponim insonlar tomonidan qo‘yilgan bo‘lib, xuddi shunday obyektning boshqalaridan farqlash uchun ishlatiladi. Toponim deganda «Yerning bo‘sh yoki suvli hududlarida inson tomonidan sun‘iy yaratilgan yoki tabiiy obyektlarning tarixiy, ijtimoiy va madaniy shartlangan geografik nomlari» tushuniladi. Olimlar toponimlarning nominativ, ko‘rsatkich (deyktik), emotsional, adreslik, tavsifiy, ideologik va mo‘ljallanish kabi funksiyalarini ajratadilar, ammo asosiy funksiyasi sifatida identifikatsiyalash funksiyasini qayd etadilar, chunki har qanday toponim muayyan geografik obyektning identifikatsiyalaydi.¹

Toponimik indikator termini ilmiy adabiyotlarda turlicha qo‘llanilib kelinmoqda. Masalan, geografik termin, geografik so‘z, geografik nomenklatura, indikator, apellyativ so‘z, toponimik termin va hokazo. Bu haqida olimlarning fikrlari ham har xil. Masalan, rus tilshunosi YE.M.Murzayev indikator toponimga xos belgi va holatlarini ifodalovchi so‘z ekanligini ta‘kidlaydi.² Z.Do‘simov va X.Egamovlar esa: «Indikator – toponimlar tarkibida kelib, obyektning xarakteri, xususiyati, sonini ko‘rsatuvchi so‘z. Masalan, toponimik indikatorlar: qishloq, qum, tepa va cho‘llar, gidronimik indikatorlar ko‘llar, daryo, ariq va hokazo. Lotincha indikos «ko‘rsatgich» so‘zidan yasalgan deb ikkiga ajratadi.³

Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududida *bobo, ota, , avliyo, qa‘la, mulla, ovul* kabi o‘tmishdagi amal hamda ijtimoiy tabaqa *eshon, xo‘ja, oxun*, joy – obyekt bildiruvchi so‘zlar, ya‘ni *nekrotoponimik indikatorlar* hisoblanadi.

¹ Суперанская, А. В. Общая теория имени собственного. -Изд. 2-е, испр. –М.: Издательство ЛКИ, 2007. – 368 с.; Бельская В. Д. Очерки англоязычной топонимики. –М.: Высшая школа, 1977. - 226 с.; Никонов В.А. Введение в топонимику. –М.: Наука, 1965; Березович Е.Л. Русская топонимия в этнолингвистическом аспекте. Автореф. дис. ... д-ра филол. наук. –Екатеринбург, 1999. -39 с

² Мурзаев Э. М. Очерки топонимики. — М.: Мысль, 1974. — С. 21-22.

³ Дўсимов З., Эгамов Х. Жой номларининг кискача изоҳли луғати. — Т.: Ўқитувчи, 1977. 161-б.



Xo'ja eshon (Taxtako'pir t.). Xo'ja arabcha so'z bo'lib, Muhammad (s.a.v.) avlodlarini ifodalaydi. U ism ham, indikator vazifasida ham keladi. (O'TIL.2006.4-Jild. 435).

Fors-tojikcha+indikator +indikator qolipida tuzilgan.

Axan Eshon (Amudaryo t.).

Umumturkiy+indikator qolipida tuzilgan.

Ba'zi nekrotoponimlar asosga formantlar qo'shish hamda indikator qo'shilishi natijasida hosil bo'lgan.

Saidjon eshon (To'rtko'l t.).

Arabcha+fors-tojikcha+indikator

Surali eshan (Kegeyli t.).

O'zbekcha+ umumturkiy+indikator

Dog'don eshon (Amudaryo t.),

Ayrim nekrotoponimlar qo'shma so'zlardan tarkib topgan bo'lib, ularga *eshon* indikatorini qo'shiladi.

Abdireym eshon (Taxtako'pir t.). O'zbekcha Abdirahim shaklida bo'lib, arab tilidan olingan. Oллоhning quli ma'nosini ifodalaydi.

Sag'iydulla eshon" qabristoni (Taxtako'pir t.). O'zbek tilida Saydulla shaklida ishlatiladi. Ikkala qismi ham arab tilidan kirgan bo'lib, "ollohning sayidi" ma'nosini beradi.

Shukurulla eshon (To'rtko'l t.). Mazkur nekrotopnimning ham ikkala qismi arabcha bo'lib, "ollohga shukur" ma'nosini ifodalaydi. Ikkalasining ham qurilish qolipi

Arabcha+arabcha+ indikator shaklidir.

Turkiy tillarda payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) ismini qo'shish bilan hosil qilingan ismlar mavjud. Lekin ular qisqartirilgan holda qo'shiladi. O'zbek tilida -mad, -mat; qoraqalpoq, qozoq tillarida -met, -bet va sh.k. shakllarda qo'shiladi. Chimboy tumanidagi *Ismet eshon* nekrotoponimi ham ikki komponentdan tuzilgan bo'lib, is – hid ma'nosida, -met – Muhammad ismining qisqargan shakli hisoblanadi.

Ismet eshon (Chimboy t.).

Qurilish qolipi: **Arabcha+ arabcha+indikator**

Ayimbet eshon (Taxtako'pir t.), **Ayimbet eshon** (Chimboy t.) nekrotoponimlarining birinchi komponenti (**Ayim** – ism qozoqcha bo'lib, quyidagi ma'nolarga ega: Mening oymo'mam deganidir. Tunni charog'on aylagandek, hayoti



Volume: 2 Issue: 8

porloq va kelajagi nurafshon bo'lsin, degan ma'noni ifodalaydi.⁴ Ikkinchi komponenti –bet Muhammad ismining qisqargan shakli.

Qurilish qolipi: **umumturkiy+arabcha+indikator**.

Narxo'ja eshon (Taxtako'pir t.) nekrotoponimi nar – o'zbekcha nor (odamdagi nor) va forscha xo'ja koponentlaridan tashkil topgan.

Fors-tijik+ fors-tojik+indikator qolipida tuzilgan.

Qoraqalpog'iston Respublikasidagi "Eshon" indikatorli nekrotoponimlarning

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Суперанская, А. В. Общая теория имени собственного. -Изд. 2-е, испр. –М.: Издательство ЛКИ, 2007. – 368 с.; Беленькая В. Д. Очерки англоязычной топонимики. –М.: Высшая школа, 1977. - 226 с.; Никонов В.А. Введение в топонимику. –М.: Наука, 1965; Березович Е.Л. Русская топонимия в этнолингвистическом аспекте. Автореф. дис. ... д-ра филол. наук. – Екатеринбург, 1999. -39 с
2. Мурзаев Э. М. Очерки топонимики. — М.: Мысль, 1974. — С. 21-22.
3. Дўсимов З., Эгамов Х. Жой номларининг қисқача изоҳли луғати. — Т.: Ўқитувчи, 1977. 161-б.
4. <https://ismlar.com/name/Ayim>.
5. Пайғамбарлар тарихи. Масъул муҳаррир Анвар қори Турсунов. – Тошкент: Munir, 2021. –С. 226.

⁴ <https://ismlar.com/name/Ayim>.